TECHFEST 2025
International Multidisciplinary Conference
Hosted from Glasgow | England
28th February, 2025
www.confrencea.org

# INKORPORATSION YONDASHUVLAR ORQALI BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna**

**Buxoro davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi**

https://doi.org/conferenceRecords1-0090-0097-4005-2521

## Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf ta'limini inkorporatsiya qilish haqida ko'pgina fikr-mulohazalar bayon etilgan. Boshlangicha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, matematika, o'qish savodxonligi va boshqa o'quv fanlarining emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarining turli-tumanligining qiziqarli ekanligini his boshlashdir. O'qituvchining pedagogik mahorati uning mukammal pedagogik qobiliyat, pedagogik kompetentiyasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, usullardan to'g'ru doimiy kasbiy ta'lim malakalarini oshirib borishda. Ushbu maqolada bo'lajak mutaxasislarda kasbiy kompetensiyalar, metodik kompetentlik, uning tuzilishi va bo'laklar, metodik kompetensiyaning vazifalari va boshlang'ich sinf o'qituvchisining ushbu kompetentliklarini rivojlantirish mumkinligia haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, obyekt, ta'lim tizimi, ta'lim poydevori, axborot, kompetensiya, bo'lajak boshlang'ich sinf ta'lim, fan, ko'nikma, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, metodik kompetentlik, metod, vosita, malaka, kasbiy pedagoglar.

# ЦЕЛИ ЗАДАЧИ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ, А ТАКЖЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ СВЯЗЕЙ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Жураева Дилноз Рахмидиновна**

**Преподаватель кафедры начального образования Бухарского государственного педагогического института**

https://doi.org/conferenceRecords1-0090-0097-4005-2521

## Аннотация

В этой статье много говорится о внедрении инкорпорирующего образования в настоящее время. Это позволяет будущему инкоторирующему миру младшим школьником и всему, что его характеризует не названием естествознания, русского языка, математики, грамотности чтения и других учебных предметов, а интересность разнообразия звуков, цветов, объемов предметов окружающего мира. Учитель замечает и знает, что ученикам нужно уметь видеть связь между природой и всем и быть. В процессе преподавания предмета технологии учитель дает образование, воспитывает, формирует всякий характер учащихся. Именно в процессе практического достижения этих целей обращаются к нескольким дисциплинам. Потому становится все более актуальным

**Ключевые слова:** технология, объект, система образования, фундамент образования, информация, компетенция, будущий начальный класс, образование, дисциплина, навыб, компетентность, профессиональная компетентность, методическая компетентность, метод, средство, квалификация, профессиональный педагог.

*"Integration of knowledge leads to holistic thinking, innovation and professional excellence."*

# INKORPORATSION YONDASHUVLAR ORQALI BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Jo'rayeva Dilnoz Rahmidinovna**

**Buxoro davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi**

https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-4008-2521

**Annotatsiya:** Mazkur maqola hozirgi kunda boshlang'ich sinf ta'limini inkorporatsiya qilish haqida ko'p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, matematika, o'qish savodxonligi va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. O'qituvchining, pedagogik mahorati uning malakasi, pedagogik qobilyati, pedagogik kompetentsiyasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi usullardan biri bu doimiy kasbiy ta'lim malakalarini oshirib borishdir. Ushbu maqolada bo'lajak mutaxasislarda kasbiy kompetensiyalar, metodik kompetentlik, uning tarkibiy qismlari, metodik kompetentsiyaning vazifalari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ushbu kompetentsiyani qanday shakllantirish mumkinliga haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** dars, texnologiya, obyekt, ta'lim tizimi, ta'lim poydevori, axborot, kompetensiya, boshlang'ich sinf, ta'lim, metodika, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, metodik kompetentlik, metod, vosita, malaka, faoliyat mezoni

# ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ, А ТАКЖЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Жураева Дилноз Рахмидиновна

Преподаватель кафедры начального образования Бухарского государственного педагогического института

https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-4008-2521

**Аннотация:** В этой статье много говорится об интеграции начального образования в настоящее время. Это понятие характеризует восприятие окружающего мира младшим школьником в целом, для него характерно не название естествознания, русского языка, математики, грамотности чтения и других учебных предметов, а интересность разнообразия звуков, цветов, объемов предметов окружающего мира. Учитель замечает и знает, что учеников нужно учить видеть связь между природой и всем в быту. В процессе прохождения предмета тенологии учитель дает образование, воспитание, формирует некий характер учащихся. Именно в процессе практического достижения этих целей обращаются к нескольким дисциплинам.Поэтому становится все более актуальным

вопрос о том, отвечает ли образовательная интеграция современным требованиям, как ее организовать.

**Ключевые слова:** урок, технология, объект, система образования, образовательная основа, информация, компетенция, начальный класс, образование, методика.

## THE GOALS AND OBJECTIVES OF INTEGRATED CLASSES IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES AND THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION

Zhurayeva Dilnoz Rahmidinovna
Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of primary education.
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-4008-2521

**Annotation:** This article is currently talking a lot about the integration of Primary School Education. This concept is characterized by the perception of the universe around a small schoolboy as a whole, for him not by the name of Natural Science, Russian language, mathematics, reading literacy and other educational sciences, but by the curiosity of the variety of sounds, colors, volumes of objects of the surrounding universe. The teacher feels and knows that students need to be taught to see the connection of nature and everything in everyday life. In the process of passing the subject of tenology, the teacher provides education, upbringing, forms some characteristic of students. It is in the process of fulfilling those goals in practice that several disciplines are addressed.Therefore, questions such as whether educational integration meets the current demand, how to organize it, are gaining relevance.

**Keywords:** lesson, technology, object, educational system, Educational Foundation, information, competence, primary class, education, methodology.

**Kirish.** Inkorporatsiya fanlararo bog‘liqlikdir. Fanlararo bog‘liqlik asoslari tabiatni to‘la holda o‘quv darsliklarda ko‘rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo‘lgan. Fanlararo bog‘liqlik nazariyasini ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o‘qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko‘p pedagog olimlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili, o‘qish, matematika, texnologiya darslari inkorporatsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o‘quvchi darsni yaxshi tushunadi.

Yurtimizda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik kompetentligi doimiy o‘zgarib borayotgan sharoitda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda, oliy ta’lim muassasasida ularning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shartsharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va

shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o‘qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda yetarli bilimga ega bo‘lgan hamda bilimini amaliyotda qo‘llay oladigan, har bir mavzuga mustaqil o‘z fikrini bildira oladigan, yetarli axborot zaxirasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, o‘quvchini mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, o‘z ustida mustaqil ishlashga o‘rgatadi. O‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda faoliyat yuritadi. Bugungi kunda o‘quvchilar yetarli bilimga ega bo‘lish bilan bir qatorda uni amaliyotga qo‘llay olishlari ham kerak. Agar boshlang’ich sinfni tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba’zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta’limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad boshlang‘ich sinfdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham boshlang’ich sinf o‘quvchisi predmet yoki voqeahodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidag va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o‘zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta’limi

oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Buni muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim to‘g‘risida qabul qilayotgan qaror va farmonlarida ham ko‘rib turibmiz. 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “Harakatlar strategiyasining 4-yo‘nalishida ham ta’lim tizimi to‘g‘risida fikr yuritilgan” vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U o’quvchilarning texnologiyaga, arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalarga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich sinfda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ta`limning keyingi pog‘onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang‘ich ta`lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi. Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Bunday tushuncha ta’lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog‘liqlik masalasini yana bir bor ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta’lim sistemasiga integrasiyani kiritish maktab va jamoatchilik o‘rtasida turgan ta’lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vositalardan biridir. Integrasiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o‘rgatadi. Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda birbiriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Kompetensiya – bu ob’yektlar va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatano‘rnatilgan,ularga nisbatan sifatli va samarali harakat qilish uchun zarur bo‘lgan shaxsning o‘zarobog‘liqfazilatlari (bilim, qobiliyat, ko‘nikma, faoliyat usullari). Kompetentlik – bu shaxsning tegishli kompetensiyaga ega bo‘lishi, unga egalik qilishi, shu jumladan, uning shaxsiy munosabativafaoliyat sub’ekti. Barkamol bo‘lish, olingan bilim va tajribani ma’lum bir vaziyatda safarbar qilishqobiliyati kompetensiyani anglatadi. Professionalizm – bu pedagogik ishning bir necha jihatlarini (faoliyat, muloqot,o‘qituvchining shaxsiyati) amalga oshirishning yuqori standartlariga erishishdir. Professionallik deganda, turli xil sharoitlarda murakkab faoliyatni tizimli, samaralivaishonchli bajarish uchun odamlarning maxsus mulki tushuniladi. Kasbiy mahoratgaegabo‘lishuchun sizga tegishli qobiliyat, istak va xarakter, doimiy ravishda o‘rganish va o‘z mahoratingiznioshirishga tayyorlik kerak. Insonning professionalligining zarur tarkibiy qismi bukasbiykompetensiyadir. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi – ko‘p omilli hodisa bo‘lib, u o‘qituvchiningnazariy bilimlari tizimini va ularni muayyan pedagogik

vaziyatlarda qo‘llashusullarini,o‘qituvchining qadriyat yo‘nalishlarini, shuningdek, uning madaniyatiningintegralko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Kompetentli o‘qituvchi yuqori darajadagi kasbiy, pedagogik, psixologikvaijtimoiyfazilatlarni birlashtiradi. Shunday qilib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi –bu kasbiy(maxsus, uslubiy, psixologik va pedagogik tayyorgarlik), ijodkorlik (munosabatlar ijodkorligi,o‘quv jarayonining o‘zi, vositalar, texnikalar, o‘qitish usullaridan maqbul foydalanish) vasan’at(aktyorlik va notiqlik)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bugungi kunda malakali mutaxassisni oddiy bilimlar yig‘indisidan “qo‘shibolish”mumkin emasligi ayon bo‘lmoqda. O‘qituvchining yangi qiyofasi paydo bo‘ldi: butadqiqotchi,o‘qituvchi, maslahatchi, loyiha menejeri. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘zkasbiykompetentligini yildan-yilga darsdan-darsga oshirib borishlari zarur

**Muhokamalar va natijalar**. Ta’lim jarayonida o’zaro aloqador fanlarni bir-biriga bog'lab inkorporatsiyani amalga oshirish o’quvchi ongida va tasavvurlari tizimida hosil bo’ladigan ma’lumotlarni qabul qilinishini mumkin qadar tezlashtiradi. Natijada yangi ma’lumotlarni o’zlashtirish, mantiqan tushunib yetish va fikran muhokama qila olish imkoniyati kengayadi. Asosan yangi mavzuni ma’ruzalar tarzidagi og’zaki bayon qilinishida aynan shu usulga asoslanilsa ta’lim oluvchilarda nafaqat o’zlashtirish faolligiga, balki qiziqish hissining hosil bo’lishiga ham erishiladi. Texnologiya darslarini maktabda o’tiladigan barcha fanlar bilan bog’lash mumkin. Amalda esa mehnat ta’limi darslari ko’proq chizmachilik, tasviriy san’at, matematika, fizika, ona tili va adabiyot, informatika asoslari, kimyo, tarix, jismoniy tarbiya, biologiya, geografiya kabi fanlar bilan bog’lanadi.

**Xulosa.** Millat ravnaqi va insoniyat kamolotini belgilab beruvchi yetakchi tamoyillaridan biri ta’lim va tarbiya hisoblanadi.Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatdagi maktab ta’limini tubdan yaxshilash, samarodorligini oshirish, muallimga munosib shart-shaoit yaratish borasidagi islohotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dolzarb masalalardan biri o‘quvchilardagi bilim sifatini oshirish bilan birgalikda ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarni yuqori saviyada shakllantirish bo‘lib bormoqda. O‘quvchiga jarayonning subyekti sifatida qarash, ularning har bir muammosi, imkoniyatini chuqur tahlil qilgan holda ular bilan jarayonga kirishish muhim masala sanaladi. Jahon standartlariga munosib javob bera oladigan o‘quvchini tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyos. Bugungi kunda davr talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qonunda e’tirof etilgan yangicha

modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo‘lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida o‘qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o‘z uslub va qoidalari yetarli bo‘lmaganday. Shunga ko‘ra yosh avlod ta’lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o‘qitish texnologiyalarini ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog‘lik ta’sir ko‘rsatayotganligini o‘rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi psixologiyasini to‘g‘ri baholay olish bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo‘lishi talab qilinadi.

Texnologiyaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi bir necha yil oldin mumkin bo'lmagan ta'lim imkoniyatlarini beradi. Texnologiya o'quvchilarga turli fanlarni chuqur tushunish imkonini beruvchi interaktiv va qiziqarli o'quv tajribasini yaratish imkoniyatiga ega. O'qituvchilar o'z darslarini rejalashtirishda texnologiyani qabul qilishlari kerak va ular ta'lim texnologiyasidagi eng so'nggi ishlanmalarni o'rganishga harakat qilishlari kerak. Texnologiyaning imkoniyatlarini tan olgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini rag'batlantiradigan muhitni yaratishi mumkin, natijada ta'lim natijalari yaxshilanadi. Texnologiyalar o‘rganishga yondashuvimizni tubdan o‘zgartirdi hamda o‘quvchilar va o‘qituvchilarga o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun vositalarni taqdim etdi. Texnologiyani boshqa fanlar bilan integratsiyalash o‘quvchilarda ijodkorlikni, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini va jamoada ishlashni rivojlantirishga yordam beradi. U yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taklif qiladi va talabalarni tobora ortib borayotgan texnologik dunyoga tayyorlaydi. Shunday ekan, o‘qituvchilar o‘quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlash uchun dars rejalariga texnologiyani kiritishda davom etishlari zarur.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim jarayoni sifatini yuqori saviyada tashkil etish, avvalo, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirish lozim. Darhaqiqat, boshlang‘ich olingan bilim o‘quvchilarda keyingi bosqichlardagi barcha bilimlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilk bilimlar nafaqat o‘quvchining maktabdagi o‘rni balki jamiyatdagi o‘z o‘rniga ega shaxs bo‘lib shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridagi kasbiy kompetentlikni takomillashtirish birinchi o‘rinda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifaga aylanishi lozim. Shu jarayonni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan tavsiyalar berib o‘tadigan bo‘lsak: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridagi kasbiy kompetentlikni oshirishga xizmat qiladigan metodik qo‘llanma va darsliklarni ishlab chiqish; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun barcha kerakli sharoit

va qulayliklarni yaratish; kasbiy kompetensiya rivojlanishiga yordam beradigan metod, usul va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; nazariya va amaliyotning uygʻunligini taʼminlagan holda jarayonni tashkil qilishda metodik, pedagogik, psixologik, shaxsiy, innovatsion hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi jihatlarga yanada koʻproq eʼtibor qaratish lozim.

**Adabiyotlar**

1. Umumiy oʻrta taʼlimning Milliy oʻquv dasturi (texnologiya)

2. R.Ismoilova "Texnologiya" 3 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.

3. . R.Ismoilova "Texnologiya" 4 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.

4. Dilnoz Jo'rayeva , "Daraxtlarning kuzgi ko'rinishi" mavzusida hajmdor applikatsiya tayyorlash, "PEDAGOGS" international research journal, ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995, 2022, noyabr

5. Jo'rayeva D, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslari orqali ishlab chiqarish mazmuni bilan tanishtirish metodikasi, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, Илимий-методикалық журнал, 2022 6-сан

6. Kamilova G.A., Jo'rayeva D.R, Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari, "Maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel

7. Тилавова Матлаб Мухаммедовна, Жураева Дилноз Рахмитдиновна, Развитие креативности учащихся на уроках технологии, "Maktabgacha ta'lim-maktab-oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel

8. Dilnoz Jo'rayeva, Texnologiya fani orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb hunarga o'rgatish mazmuni, ilmiy axborotnoma, 2022

9. Tilavova Matlab Muhammedovna, Juraeva Di lnoz Rakhmidinovna, Ways to Develop Students' Technical Creativity and Creative Skills through the Teaching of Technology, World Journal of Agriculture and Urbanization Volume: 01 | January 2022 https://wjau.academicjournal.io/index.php/wjau

10. Dilnoz Zhurayeva Rachmidinovna, Theoretical Foundations for Ensuring Interdisciplinary Reparative Dependence in Elementary School Technology Classes, International Journal of Development and Public Policy, Published under an exclusive license by open access journals under Volume: 3 Issue: 10 in Oct -2023 Copyright (c) 2023 Author (s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY).To view a copy of this license, visit tps://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

| e-ISSN: 2792-3991 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue: 10

11. Jo'rayeva D.R, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslari orqali robototexnikaga qiziqtirish metodikasi, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, Илимий-методикалық журнал, 2023 6-сан

12. Dilnoz Jo'rayeva, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida qog'oz va karton bilan ishlash mazmuni bilan tanishtirish metodikasi, "Boshlang'ich ta'limda xalqaro tajribalar: yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi", Xalqaro ılmıy-amalıy anjuman materıalları, 2023-yil, 19-may

13. Raxmidinovna, D. J. R. (2023). Boshlang 'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorparatsion bog 'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari. *12th-TECH-FEST-2023 International Multidisciplinary Conference Hosted from Glasgow | England ww.confrencea.org 30th December, 2023*

14. Jo'rayeva, D., & Farmonova, S. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF ENSURING INTERDISCIPLINARY CONNECTION IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES. *Modern Science and Research*, *2*(12), 392-396.

15. Jurayeva Dilnoz Rahmidinovna, Scientific theoretical significance of innovation and integrated educational technologies in primary class technology lessons, 2024-07-18

16. Dilnoz Jo'rayeva, Farmonova Sarvinoz, Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish, "Iqtidorli talaba O'zbekiston tayanchi" ilmiy maqolalar to'plami, 2024-yil, 4-mart

17. Dilnoz Jo'rayeva, Norqulova Marjona, Texnologiya darslarini integratsion yondashuv asosida tashkil etish, "Iqtidorli talaba O'zbekiston tayanchi" ilmiy maqolalar to'plami, 2024-yil, 4-mart

18. Jo'rayeva Dilnoz Rahmidinovna, Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorparatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024

19. D.R.Jo'rayeva, Texnologiya darslarida qog'ozdan amali ishlar bajarish orqali o'quvchilarning ijodkorligini oshirish metodikasi, "Zamonaviy ta'lim-uchinchi renessans poydevorini qurish omili sifatida" nomli ilmiy metodik tavsiyalar va maqolalar to'plami 2024-yil 15-aprel

20. Zhurayeva Dilnoz Rahmidinovna, The Role of Using Negation in Improving Information Competence in Students in Elementary School Technology Classes, European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 4 | Issue 4 | Apr - 2024 ISSN: 2795-8612